SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)
2025

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I12Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 12 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 12-son (dekabr, 2025). - 557 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna*
O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI..... 13-16

*Равшанов Маҳмуд*
ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЫКОВ .................. 17-19

*Tursunov Bekzot Yandashevich*
FARG‘ONA VODIYSIDA HASHAR YO‘LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN ............ 20-24

*Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o‘g‘li, Shenkar Michael*
SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MEROSINING O‘RGANILISHI .......... 25-30

*Esanova Nilufar*
O‘ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA .................... 31-36

*Asadova Ra’no Baymanovna*
OLIY TA’LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK:
O‘ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHIYATI VA ISTIQBOLLARI .... 37-40

*Aytmuratova Janilsin*
FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN ............ 41-44

*Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna*
JANUBIY OROL BO‘YI SHAHARLARI TARIXI BO‘YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI)............ 45-49

*Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li*
ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O‘RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR ................................ 50-55

*Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*
ANDIJON VILOYATI SUV XO‘JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA)............ 56-60

*Elboyeva Shaxnoza*
XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O‘RNI:
TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR ............ 61-65

*Choriyeva Nargiza Ibotovna*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ............ 66-69

*Fayzullayev Oybek*
O‘RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O‘RGANISH
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA) ............ 70-74

*Norboyev Ravshan Saydulla o‘g‘li*
SHIMOLI-G‘ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI ............ 75-79

*Rajabova Nazira Shaxobovna*
O‘ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI ............ 80-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI


*Gabbarov Sabit Nietali'evich*
QOʻY VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASI QOʻNGʻIROT TUMANI MISOLIDA) ............................ 85-89

*Xolmurotov Fozil*
XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR RESURSLARI OʻRTASIDAGI KOʻP OʻLCHOVLI BOGʻLIQLIK ........................................................ 90-103

*Raximov Faxriddin Shavkatovich*
TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI ........................................................................................ 104-116


## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI


*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
YANGI OʻZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYASI ................................................................................ 117-121

*Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi*
JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI ........................................................................ 122-128

*Jumayeva Shaxlo Suyunovna*
TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI ............ 129-133

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich*
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI............................ 134-138

*Danabayev Xurshid Napasovich*
SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI................................ 139-142

*Shokirov Tohirjon*
CHOLGʻU SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI OʻRNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA)......................................... 143-148

*Raxmatov Alisher Obidovich*
YANGI OʻZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOIY JARAYONLARGA INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI ........................................................ 149-152

*Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna*
HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR ............................................ 153-158

*Axatova Dildora Axtamovna*
IBN SINONING “RISOLAYI FIL-HUZN” ASARINING FALSAFIY TAHLILI.............................. 159-163

*Toshboboyev Maksud Jalilovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOIY JARAYONLAR DIALEKTIKASI ........................................................................................................ 164-168

*Abdiyev Gʻayrat Ergashevich*
YANGI OʻZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINING NAMOYON BOʻLISH SHAKLLARI ........................................................ 169-174

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR ..... 175-179

*Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich*
RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR ..... 180-187

*Abduraxmonov Xasan Ibroximovich*
YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ..... 188-192

*Norbo'tayev Islombek Musurmonovich*
POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA ..... 193-198

*Ergashev Alijon Boxodirovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI ..... 199-203

*Elmuradova Surayyo Abdijalilovna*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODELI ..... 204-207

*Bobamirzayev Abdulaziz*
RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR ..... 208-211

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOIY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR ..... 212-216

*Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI ..... 217-221

*Beshimov Xamidjon Sayidovich*
FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA GENEZISI ..... 222-226

*Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li*
VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI ..... 227-231

*Kdirbaev Baxadir Berdaxovich*
AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI ..... 232-237

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh*
O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI ..... 238-245

*Уринбаева Дилбар Базаровна*
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ........ 246-258

*Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна*
СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА ........ 259-264

*Karimov Ulugbek Nusratovich*
THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY" ........ 265-269

*Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna*
POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH ........ 270-275

*Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna*
QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI ........ 276-279

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 280-284

*Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna*
YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI ........ 285-290

*Bobojonov Dilshod Jumakul ugli*
THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES ........ 291-294

*Shamshetova Biybiayim Janibek qizi*
LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI ........ 295-302

*Xaitova Gulhayo Tovasharovna*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN–UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI ........ 303-307

*Mardanova Mohira Davron qizi*
THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS ........ 308-311

*Khalilova Shohista Muhammadi qizi*
COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE ........ 312-315

*Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna*
SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI ........ 316-319

*Rustamov Dilshodbek*
NUTQIY MULOQOT TAVSIFI ........ 320-323

*Musayev Akmaljon Ibrogimovich*
INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI ........ 324-329

*Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI ........ 330-333

*Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “SUV/WATER” KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI ........................ 334-342

*Норкулова Шахло Абдугофир кизи*
СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ... 343-345

*Tursunova Javhar Bakir qizi*
O‘ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH ....................... 346-350

*Xoshimova Mohigul Axmatovna*
XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA’SIR MASALASI ........................................ 351-355

*Омонова Мадина Аслиддиновна*
ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ ........................................................................ 356-361

*Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna*
PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS ...... 362-370

*Abduraimova Mahliyo Valijon qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI .................................................................................................... 371-373

*Rajat Choudhary*
LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE ........................................................ 374-377

*Клеблеева Резеда Радионовна*
МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА ...................................................................................... 378-381

Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina
RUS TILIDA SO‘ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO‘SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH ............................................... 382-385

*Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi*
SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI ..................................................... 386-389

*Arapjonova Zebo Otabek qizi*
THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH .............................................................................................................. 390-394

*Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna*
THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES .......................................................................... 395-399

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich*
JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA .................... 400-407

*Zokirov Sherzod Ilxom o‘g‘li*
PROKURATURA ORGANLARIDA SUN’IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ...................... 408-415

*Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov*
SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQARISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI ........................................................................... 416-428

*G‘ulommamatova Parvina Akbarali qizi*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 429-435

*Djalilov Javoxir Abdumajitovich*
ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI ........ 436-443

*Normurodova Behro‘za Xolmo‘minovna*
RAQAMLI DALILLARNI TO‘PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O‘RNI........ 444-450

*Ismailov Bekjon Salixovich*
NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA’MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI ........ 451-456

*Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI........ 457-463

*Almatov Sanjar Zokirovich*
DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI........ 464-467

*Djuraev Farxod Eshboevich*
JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI........ 468-473

*Sadikova Dilafruz Radjabovna*
O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG‘URTA MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI........ 474-481

*Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли*
МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ ........ 482-488

*Olimov Abbosjon*
SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI........ 489-494

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI ...... 495-500

*Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна*
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА........ 501-506

*Джуманиязов Фарход Улугбекович*
РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ........ 507-510

*Kuvatova Nozima Baxtiyorovna*
TA’LIM TIZIMIDA O‘QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ........ 511-515

*Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna*
TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 516-519

*Pirimbetov Bxit Allabaevich*
BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI .............. 520-526

*Djalolov Furqat Fattohovich*
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ROLI........................................ 527-531

*Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich*
PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION .................................. 532-538

*Habibullayeva Shoira*
O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOYILLARI ........................................ 539-542

*Abatov Jalğasbay Orınbaevich*
TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI.. 543-548

*Azzamov Yusuf Rajaboyevich*
TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF........................................ 549-553

*Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи*
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ........................ 554-556

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 12 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 November 2025
**Accepted:** 1 December 2025
**Published:** 15 December 2025

*Article / Original Paper*

# PHILOSOPHICAL-MORAL MECHANISMS OF THE PROBLEM OF LIFE AND DEATH IN AN INFORMATION SOCIETY

**Dusnazarov Mirjalol Esanboy oglu**
Independent researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Abstract.** The article analyses the philosophical and ethical mechanisms through which life and death are understood in the information society. Drawing on Castells, Bauman, Baudrillard, Han and recent work on digital immortality, it explores the transformation of mortality, digital legacy and data afterlife. The study proposes ethical guidelines and recommendations for a more humane digital environment.

**Keywords:** information society; life; death; digital immortality; digital legacy; digital afterlife; ethics.

# AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O‘LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI

**Do‘snazarov Mirjalol Esanboy o‘g‘li**
Samarqand davlat chet tillar Instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida hayot va o‘limni anglashning falsafiy va axloqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Kastels, Bauman, Bodrillard, Xan g‘oyalari va raqamli o‘lmaslik bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar asosida o‘lim tajribasining o‘zgarishi, raqamli meros va o‘limdan keyingi ma’lumotlarning mavjudligi ko‘rib chiqiladi. Tijoratlashtirish va shaxsning qadr-qimmatini yo‘qotish xavfiga alohida e’tibor beriladi.

**Kalit so‘zlar:** axborotlashgan jamiyat; hayot; o‘lim; raqamli o‘lmaslik; raqamli meros; raqamli oxirat hayoti; axloq.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N39

XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, global tarmoqlarning kengayishi va raqamli ma’lumotlar oqimining keskin ortishi bilan tavsiflanadi. Manuel Kastels bunday yangi tarixiy bosqichni “tarmoq jamiyati” deb atab, bunda iqtisodiy va madaniy hayotning markaziga axborot oqimlari, raqamli tarmoqlar va ularning ijtimoiy tuzilmalarga ko‘rsatgan ta’sirini ta’kidlaydi [1]. Axborotlashgan jamiyatda inson hayoti tobora “ma’lumot” va “raqamli izlar” orqali ko‘rinadigan, tarmoqlarda qayd etiladigan hodisaga aylanib bormoqda.

Hayot va o‘lim muammosi qadimdan falsafa va axloqshunoslikning markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Biroq axborotlashgan jamiyat sharoitida mazkur muammo yangi kontekstda namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar insonning kundalik hayotini, muloqotini, xotirasini va hatto o‘limdan keyingi “raqamli izlari”ni boshqaradigan asosiy vositaga aylangan bir sharoitda, hayotning mazmuni, o‘limga munosabat, xotira va unutilish mexanizmlari sezilarli darajada o‘zgaradi [3]. “Raqamli meros”, “raqamli o‘lmaslik(boqiylik)”, “raqamli oxirat hayoti” kabi tushunchalar tobora ko‘proq ilmiy muhokama va amaliy siyosat kun tartibiga kirib kelmoqda.

Axborotlashgan jamiyat bilan bogʻliq axloqiy va ijtimoiy muammolar UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar darajasida ham alohida yoʻnalish sifatida koʻrilmoqda. Xususan, UNESCO ekspertlari axborot jamiyati inson huquqlari, shaxs sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bogʻliq yangi chaqiriqlarni keltirib chiqarayotganini ta'kidlashadi [2]. Raqamli texnologiyalar yordamida hayot va oʻlim haqidagi tasavvurlar, xotira va motam marosimlari, shaxsning oʻzini anglash va boshqalar bilan munosabati qayta formatlanmoqda.

Ushbu maqolaning tadqiqot obyekti – axborotlashgan jamiyatda hayot va oʻlim muammosining namoyon boʻlishi, predmeti esa mazkur muammoga nisbatan shakllanayotgan falsafiy-axloqiy mexanizmlardir. Maqolaning maqsadi – axborotlashgan jamiyat sharoitida hayot va oʻlimni idrok etishning asosiy nazariy yoʻnalishlarini tahlil qilish, "raqamli oʻlmaslik" va "raqamli meros" fenomenlari misolida falsafiy-axloqiy oqibatlarni koʻrsatish hamda axborot muhitini insonparvar yoʻnalishda rivojlantirish boʻyicha takliflar ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini M. Kastelsning tarmoq jamiyati nazariyasi [1], Z. Baumanning "suyuq hayot" haqidagi gʻoyalari [5], J. Bodriyyarning simulyakr va giperrallik konsepsiyasi [6], Byun-Chul Xan tomonidan ishlab chiqilgan "shaffof jamiyat" talqini [7], shuningdek, raqamli oʻlmaslik va raqamli oʻlimdan keyingi mavjudlikka oid zamonaviy tadqiqotlar tashkil etadi. Maqolada ijtimoiy-falsafiy tahlil, konseptual tahlil, komparativ yondashuv va normativ axloqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Axborotlashgan jamiyat (yoki bilim jamiyati) atamasi odatda iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda axborot va bilimlarning asosiy strategik resursga aylanishi, texnologik infratuzilmaning esa jamiyatning "asab tizimi" vazifasini bajarishi bilan izohlanadi. M. Kastels "Tarmoq jamiyati yuksalishi" asarida yangi davrning asosiy xususiyatlarini – "oqimlar makoni" (space of flows), "vaqtsizlik vaqti" (timeless time), tarmoq shaklidagi ijtimoiy strukturalar, iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sifatida tasvirlaydi [1]. Bu jarayonlar fonida insonning hayotiy tajribasi tobora mediatizatsiyalashadi: doʻstlik, ish, siyosiy ishtirok, sevgi munosabatlari koʻp hollarda raqamli platformalar orqali vositalashadi.

UNESCO mutaxassislari axborot jamiyati bilan bogʻliq "axloqiy va ijtimoiy chaqiriqlar"ni alohida ta'kidlab, axborot texnologiyalaridan foydalanish umuminsoniy qadriyatlar, adolat va inson sha'ni bilan mos boʻlishi shartligini qayd etadi [2]. Bu nuqtai nazar hayot va oʻlim muammosini ham axborotlashgan jamiyat axloqiy me'yorlari kontekstida qayta koʻrib chiqishga undaydi.

Hayot va oʻlim muammosi: klassik va zamonaviy yondashuvlar

Falsafiy an'anada hayot va oʻlim masalasi koʻpincha insonning mavjudligi, ma'nosi va maqsadi bilan bogʻliq ravishda talqin qilingan. Antik falsafada (Platon, Aristotel) jismoniy hayot bilan ruhiy hayot oʻrtasidagi munosabat, axloqiy mukammallikka erishish masalasi muhim oʻrin tutgan. Yangi davr va modern falsafasida esa insonning yakka subyekt sifatida erkinligi, mas'uliyati va oʻz hayotini ma'noli qilish zarurati oldinga chiqqan.

Zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda Z. Bauman "suyuq zamonaviylik" tushunchasini taklif etib, zamonaviy jamiyatda barcha ijtimoiy shakllarning beqarorligi, oʻzgaruvchanligi va "eruvchanligi"ni ta'kidlaydi. "Suyuq hayot" sharoitida inson hayoti doimiy loyiha sifatida koʻriladi: kasb, yashash joyi, munosabatlar, hatto identitetning oʻzi tez-tez oʻzgarib turadi. Bu vaziyatda oʻlimga munosabat ham oʻzgaradi – unga nisbatan ochiq falsafiy mulohaza yuritish oʻrniga, uni iste'molchilikka yoʻnaltirilgan turmush tarzi, "abadiy yoshlik" madaniyati, sogʻlom turmush tarzi bilan "chetlab oʻtish" tendensiyasi kuchayadi[5].

J. Bodriyyar postmodern jamiyatni “simulyakrlar va simulyatsiyalar” jamiyati sifatida tavsiflab, unda “reallik”ning oʻzi belgilar va tasvirlar oqimi tomonidan “oʻldirilishi”ni taʼkidlaydi. Media muhiti insonni ekrandagi tasvirlar bilan toʻldirib, voqelik va tasvir oʻrtasidagi chegarani yoʻqotadi. Bu jarayon hayot va oʻlimga munosabatda ham namoyon boʻladi: oʻlim koʻpincha ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda spektakl, shou, sensatsion hodisa sifatida tasvirlanadi, ammo shaxsiy, ichki, maʼnaviy tajriba sifatida kamroq tahlil qilinadi [6].

Byun-Chul Xan “Shaffof jamiyat” asarida zamonaviy raqamli madaniyatni “hamma narsani koʻrinadigan qilish”ga intiladigan, maxfiylik, sir va ichki chuqurlikni yoʻqotayotgan tizim sifatida tasvirlaydi [7]. Uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya mexanizmlari insonni doimiy ravishda oʻzini namoyish qilishga, ijobiy obrazini ishlab chiqish va uni doimiy yangilashga majbur etadi. Bu jarayonda “salbiylik” – zarurat, cheklilik, zaiflik, oʻlim haqidagi xotirjam fikr yuritish imkoniyati siqib chiqariladi. Demak, axborotlashgan jamiyat sharoitida hayot va oʻlim muammosi koʻpincha “koʻrinmas” boʻlib qoladi, biroq u raqamli izlar, algoritmik boshqaruv va iqtisodiy manfaatlar orqali bilvosita boshqariladi.

Axborotlashgan jamiyatda hayot va oʻlim muammosining eng dolzarb koʻrinishlaridan biri “raqamli oʻlmaslik” (digital immortality) konsepsiyasidir. G. Bell va J. Greyning klassik maqolasida raqamli oʻlmaslik insonning butun hayoti davomida hosil qilgan maʼlumotlari, matn, tasvir, audio va video yozuvlari, shuningdek, raqamli profili asosida virtual “avatar” yaratish gʻoyasi bilan izohlanadi [3]. Bunday avatar inson vafotidan keyin ham maʼlum darajada “faoliyat yuritishi”, oʻz sohibiga oʻxshash tarzda javob qaytarishi mumkin, degan faraz ilgari suriladi.

J. Dinneen va hamkorlari “Axborot jamiyatida hayot va oʻlim” maqolasida hayot davomida yigʻiladigan maʼlumotlar va oʻlimdan keyingi “raqamli meros” oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilib, “inson vafotidan keyin uning maʼlumotlariga nima boʻlishi kerak?” degan savolni koʻndalang qoʻyadilar. Mualliflar turli manfaatdor guruhlar – oila aʼzolari, platforma egalar, kutubxonalar, arxivlar, tadqiqotchilar va boshqalar – oʻrtasida qarama-qarshi qadriyatlar va manfaatlar mavjudligini koʻrsatadilar [4].

Axborot jamiyati etikasiga oid tadqiqotlar raqamli meros bilan bogʻliq bir qator axloqiy masalalarni ajratib koʻrsatadi:

– shaxsning oʻlimdan keyingi maʼlumotlari ustidan kim huquqqa ega boʻladi;

– raqamli profilini saqlash yoki oʻchirish qarorini kim va qanday mezonlar asosida qabul qiladi;

– marhumning shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilish, manipulyatsiya va tijorat maqsadlarida suiisteʼmol qilinishining oldini olish mexanizmlari qanday boʻlishi kerak [2, 8, 9].

C. Oxman va L. Floridining tadqiqotlarida “raqamli oʻlimdan keyingi sanoat” tushunchasi kiritilib, onlayn platformalarning marhumlar haqidagi maʼlumotlardan foydalanish amaliyoti siyosiy-iqtisodiy va axloqiy jihatdan tahlil qilinadi [8; 9]. Mualliflar tijorat platformalari foydasiga boʻlgan kuch nomutanosibligi, foydalanuvchilarning ongli roziligi va raqamli merosning uzoq muddatli taqdiriga oid huquqiy boʻshliqlarga eʼtibor qaratadilar.

Shunday qilib, “raqamli oʻlmaslik” va “raqamli meros” axborotlashgan jamiyatda hayot va oʻlim muammosini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu yerda gap biologik oʻlmaslik haqida emas, balki inson haqidagi maʼlumotlarning uzoq muddat saqlanishi, qayta ishlanishi va ijtimoiy muomalada qolishi haqida bormoqda. Ularning falsafiy-axloqiy mexanizmlarini tahlil

qilish, bir tomondan, shaxsning erkinligi va qadr-qimmatini himoya qilish, ikkinchi tomondan, jamiyatning xotira, adolat va ijtimoiy birdamlik haqidagi tasavvurlarini qayta koʻrib chiqishni talab qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi nazariy va adabiy manbalar tahlili asosida axborotlashgan jamiyatda hayot va oʻlim muammosining falsafiy-axloqiy mexanizmlari boʻyicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, axborotlashgan jamiyat inson hayotini "raqamli izlar" majmui sifatida talqin qilishga moyil boʻlmoqda. Insonning muloqoti, his-tuygʻulari, xotiralari va kundalik amaliyotlari tobora koʻproq raqamli platformalar orqali ifodalanadi va saqlanadi [1; 3; 4]. Bu jarayon oʻlimdan keyingi davrni ham qamrab oladi: shaxsning raqamli profili va maʼlumotlari uning biologik hayoti tugaganidan keyin ham mavjud boʻlib qolishi, boshqalar bilan "oʻzaro taʼsir"ga kirishi mumkin. Shu maʼnoda, axborotlashgan jamiyat hayot va oʻlim oʻrtasidagi chegarani maʼlum darajada "choʻziluvchan" qiladi.

Ikkinchidan, "raqamli oʻlmaslik" gʻoyasi insonning cheklilik va zaiflikni qabul qilish qobiliyatiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Agar oʻlimdan keyingi "raqamli mavjudlik" ideal sifatida targʻib qilinsa, bu hayotning mazmunini bugun va shu yerda masʼuliyat bilan qurish, boshqalar bilan chinakam munosabatlarni rivojlantirish zaruratini zaiflashtirish xavfini tugʻdirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli merosni boshqarish masalasi yechilmagan boʻlsa, shaxsning shaʼni va qadr-qimmati tijorat manfaatlari, algoritmik manipulyatsiya va siyosiy maqsadlar qurboniga aylanishi ehtimoli ortadi [2; 8; 9].

Uchinchidan, axborotlashgan jamiyatda hayot va oʻlim muammosini axloqiy jihatdan hal etish uchun maxsus normativ-meʼyoriy bazani rivojlantirish zarur.

Xususan:

– raqamli platformalar foydalanuvchilariga oʻlimdan keyingi raqamli merosi boʻyicha aniq va tushunarli tanlov imkoniyatlarini (profilni oʻchirish, arxivlash, yaqinlariga topshirish va h.k.) taqdim etishi;

– "oʻlimdan keyingi maʼlumotlar" bilan ishlovchi tashkilotlar uchun axloqiy kodekslar, professional standartlar va mustaqil nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish;

– shaxs butun umri davomida bergan rozilikning oʻlimdan keyingi davrda avtomatik ravishda cheksiz amal qilmasligi, balki alohida tartibga solinishi zarurligi taʼminlanishi lozim.

Toʻrtinchidan, taʼlim tizimida axborot etikasiga, xususan, hayot, oʻlim va raqamli merosga oid masalalarga alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq. Raqamli savodxonlikni oshirish faqat texnik koʻnikmalarni emas, balki raqamli muhitda oʻzini va boshqalarni hurmat qilish, shaxsiy maʼlumotlar, xotira va unutilish huquqi bilan bogʻliq axloqiy masalalarni ham qamrab olishi kerak. Bu borada falsafa va axloqshunoslik fanlarining oʻrni, ayniqsa, muhimdir.

Beshinchidan, jamiyatda motam va xotira bilan bogʻliq anʼanaviy madaniy mexanizmlarni raqamli amaliyotlar bilan uygʻunlashtirish, "virtual motam", onlayn xotira sahifalari va sunʼiy intellekt asosidagi esdalik shakllari inson qadr-qimmatini hurmat qiladigan tarzda tashkil etilishi zarur. Bu jarayonda oila, diniy va maʼnaviy anʼanalar, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat siyosati oʻzaro hamkorlikda harakat qilishi lozim.

Umuman olganda, axborotlashgan jamiyatda hayot va oʻlim muammosi nafaqat texnik va huquqiy, balki chuqur falsafiy-axloqiy masala sifatida qaralishi zarur. Insonning raqamli izlari, maʼlumotlari va xotiralari bilan ishlashda asosiy mezon sifatida inson qadr-qimmati,

erkinligi va sha’nini ustuvor qo‘yish – axborotlashgan jamiyatning barqaror va insonparvar rivojlanishining bosh sharti bo‘lib qoladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Castells, Manuel. The Rise of the Network Society. 2nd ed., Wiley-Blackwell, 2010.
2. Mukherjee, Romi S. Ethical and Societal Challenges of the Information Society. UNESCO, 2013.
3. Bell, Gordon, and Jim Gray. “Digital Immortality.” Communications of the ACM, vol. 44, no. 3, 2001, pp. 28–31.
4. Dinneen, Jesse, et al. “Life and Death in the Information Society.” Information Matters, vol. 4, no. 1, 2024.
5. Bauman, Zygmunt. Liquid Life. Polity, 2005.
6. Baudrillard, Jean. Simulacra and Simulation. Translated by Sheila Faria Glaser, University of Michigan Press, 1994.
7. Han, Byung-Chul. The Transparency Society. Stanford University Press, 2015.
8. Öhman, Carl, and Luciano Floridi. “The Political Economy of Death in the Age of Information: A Critical Approach to the Digital Afterlife Industry.” Minds and Machines, vol. 27, no. 4, 2017, pp. 639–662.
9. Öhman, Carl, and Luciano Floridi. “An Ethical Framework for the Digital Afterlife Industry.” Nature Human Behaviour, vol. 2, no. 5, 2018, pp. 318–320.
10. Park, Lucy Yejin. “Digital Access, Digital Literacy, and Afterlife Preparedness.” Social Media + Society, 2024.
11. Nowaczyk-Basińska, Katarzyna. “Digital Afterlife Leaders: Professionalisation as a Social Response to Death in the Digital Age.” Mortality, 2025.
12. Meitzler, Matthew. “Digital Afterlife and the Future of Collective Memory.” Middle East Studies Review, vol. 1, no. 2, 2024.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).